Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

“MUHOKAMAT UL-LUG’ATAYN” ASARINING ILMIY NASHRLARI

Xalilova Barchinoy Baxtiyor qizi
70230301 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (arab)
O‘zbekiston respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.20018238

Annotatsiya. Tadqiqotning asosiy masalasi Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug’atayn” asari bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy nashrlarni tadqiq qilish hamda ma’lumotlar berish, jumladan, Qosimjon Sodiqov va Yusuf Tursunov kabi olimlar tomonidan tuzilgan ilmiy nashrlar, ular orasidagi tafovutlar, farqli jihatlar, o’ziga xos yondashuvlarni tadqiq etish va o’z navbatida buning natijasida Navoiy asari tilini osonroq tushunishga

Abstract. The main objective of the research is to study scientific publications developed on Alisher Navoi's "Muhokamat ul-lughatain" and analyze the differences and advantages between them.

Kirish.

Alisher Navoiyning ”Muhokamat ul-lug‘atayn” asari ikki til muhokamasi, ya’ni turkiy va forsiy tillar qiyosiga bag’ishlangan ilmiy-badiiy asar hisoblanib, bugungi kungacha asarning 4 ta qo’lyozma nusxasi mashhur bo’lib, ular:

1. Istanbulda saqlanayotgan To’pqopi saroyi muzeyidagi nusxasi
2. Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasida saqlanayotgan Fotih nusxasi
3. Parij nusxasi
4. Budapeshtda saqlanayotgan nusxasi

Bularga qo’shimcha ravishda olim Yusuf Tursunov o’z ilmiy-tanqidiy matnini ishlab chiqishda foydalangan Haydarobod nusxasi haqida ham ma’lumot keltirib o’tganlar. U XVIII asrga taalluqli ekanligi hamda Haydarobodning Salarjang kutubxonasida Zahiriddin Muhammad Boburning devoni bilan birga 18-inv. raqami ostida saqlanayotgani haqida olim o’z asarida yozib o’tganlar.[1]

Olim ushbu qo’lyozmaning afzalliklari hamda e’tiborga loyiq jihatlarini ham yoritib o’tganlar. Qo’lyozmaning boshqa qo’lyozmalardan farqlari, ba’zi harflardagi kotibga xos bo’lgan individualliklar, yana e’tiborlisi kotibning baz’zi so’zlar o’rniga ularning ma’nodoshlarini qo’llagan holatlarini va buning ma’nolarga ko’rsatgan ta’siri haqida ma’lumotlar beriladi.

Aslida mumtoz asarlarni nashrga tayyorlash, ilmiy matnlarini tuzish aynan o’quvchilar uchun qulaylikni yuzaga keltirish uchun yaratiladi, shuningdek, matn tahliliga uni tushunishga qaratilgan ilmiy matnlar ayni muddao hisoblanib, Navoiyning ilmiy ta’riflarini va qiyin istilohlarini ham tushunib olishimiz uchun zaruriy manba bo’lib xizmat qiladi.

Asar haqida ikki olim ham qaysi manbalarga va qaysi qo’lyozmalarga tayanganliklari haqida ma’lumot keltirishgan. Qosimjon Sodiqov o’zlarining Yusuf Tursunov o’zlari mualliflik qilgan ilmiy-tanqidiy matn borasida Parij nusxasidan foydalanganliklari, shu bilan bir qatorda, tanqidiy yondashuv asosida Istanbul va Qo’qon nashrlariga solishtirib, ulardagi ajralish, mossizliklar va xatolarni to’la ravishda ko’rsatib berishga uringanlarini ta’kidlab o’tadilar.

[1]Алишер Навои “Муҳокамату-л-луғатайн”: Қ.Содиқов таҳлили, табдили ва талқини остида. —Тошкент: Akademnashr, 2017. Б.7

Asosiy qism.

“Muhokamat ul-lug’atayn” asari muqaddimasida Allohga hamd keltirilganidan so’ng dastlab Navoiy dunyo tillarining kelib chiqishi to’g’risida o’z fikr va mulohazalarini bayon etadi. Bunda u har bir til alohida mo’jiza ekanligini hamda hayvonlar va qushlar ham o’zlarining alohida tillariga va turfa xil honishlariga ega ekanligini ta’kidlaydi. Shu o’rinda Navoiy uch xil til borligini va barcha til shoxobchalari aynan ulardan ajralganligi aytadi. Demak, tillarning eng eskilari turkiy, forsiy va hindiy tillari va u tillarning asosi Nuh payg’ambarning 3 o’g’li: Yofas, Xom va Somga borib taqalishi haqidagi fikrni ilgari suradi.

Asardagi yetakchi g’oya bu turk tilining fors tiliga qaraganda ancha boyroq va mukammalroq ekanini dalillar bilan to’laqonli yoritib berishdan iborat. “Muhokamat ul-lug‘atayn”da forslar sart nomi ostida tilga olingan. Sart[2]lar turklarga qaraganda fahmliroq, ilmdagi daqiq holatlarni ham idrok eta oladigan shu bilan bir qatorda so’z ishlatish tomonlama turklardan ortda qolganliklari qayd etilgan. Asar davomida aynan shu keltirilgan fikrlar o’z isbotini topadi. Chunki Navoiy buni misollar bilan dalillaydi. Xususan, asarda qo’llanilgan yuzta fe’l tahlili doirasida turk tilining qanchalik boy ekani misollar va baytlar bilan ko‘rsatilgan.

Qosimjon Sodiqov qo’lyozmalar nusxalari haqida ma’lumot qilib kiritmagan yana bir nusxa mavjud bo’lib, u Haydorobod nusxasidir. Ushbu nusxa XVIII asrga tegishli deb ma’lum qilinadi. Qo’lyozma Haydorobodning Salarjang kutubxonasida 18-inv. raqami ostida Bobur devoni bilan birga saqlanmoqda. Uning foto nusxasini ustoz Hamid Sulaymonov 1975-yilda mamlakatimizga keltirganlar[3]. Ushbu qo’lyozmada ahamiyat qilinishi kerak bo’lgan jihat shundaki kotib ba’zi so’zlar o’rniga ularning ma’nodoshlarini ishlatib ketgan. Masalan: يانا o’rniga تقى, بهره مند o’rniga بهرره ور kabi hamda ba’zi so’z va iboralarni o’zboshimchalik bilan o’zgartirib ko’chirishdir. Shuningdek, دهلوى جانبى دين داغي بو دوستلوغ غايت سيز نكهت ليغ كول ياسمن قويني so’zini, يوسونللوق so’zi o’rniga دسترلوغ gapidagi كوپ واقع بولوبدور حسرو قويني غه سالدي jumlasidagi

so’zi o’rniga بويني غه so’zini yozilishi نظم سيلكيكا كيرمايدور jumlasini esa نطم سلكيكا تارتيلمايدور qilib o’zgartirilishi kabi[4]. Albatta, kotibning bu ishini ma’qul topish mumkin emas. Ammo ba’zi o’rinlarda uni keskin ayblab ham bo’lmaydi. Masalan, “qimsanmoq” va “qizg’anmoq” fe’llariga misol qilib keltirilgan

عذا رينك ني آچر غه قيمسانورمين
و لي ايل كور ماكيكا قيزغانورمين

baytining ikkinchi misradagi كورماكيكا so’zini كورماكيدين tarzida o’zgartirib ko’chirilgan. Kotib gap qurilishi bo’yicha go’yo to’g’ri ish qilgandek bo’lgan lekin,vazn masalasi aynan ko’rmagiga so’zini taqozo qilishini kotib hisobga olmagan. Mana shu sabablar tufayli ham balki Qosimjon Sodiqov qo’lyozmalar orasida eng eski, ishonchli hamda Navoiy yashagan va bevosita yozilishida o’zi qatnashgan To’pqopi nusxasini tanlab olganlar va ilmiy-transkripsion matnda Haydarobod qo’lyozmasi haqida biron ma’lumot ham keltirmaganlar.

“Muhokamat ul-lug’atayn” asarining ilmiy-tanqidiy matni Yusuf Tursunov tomonidan amalga oshirilganini aytdik. Ushbu nashr asar tilini tushunish va ma’nolarini o’rganish uchun juda qulay. Muallif ushbu kitobida “Muhokamat ul-lug’atayn”ning mukammal variant sifatida Fotih nusxasini tilga oladi va undagi xususiyatlarni alohida ta’kidlab o’tadi. Hamid Sulaymonov Fotih nusxasi haqida so’z

[2] Sanskrit tilida karvonboshi, savdogar ma’nolarini ifodalovchi bu so’z o’tmishda turli o’lkalarda turli ma’nolarda ishlatilgan. Jumladan, u o’rta asrlarda fors va shuningdek, tojiklarga nisbatan ishlatilgan. Chunonchi, Navoiy ham bu so’zni o’z asarlarida faol qo’llagan.

[3] Турсунов Ю. “Муҳокамату-л-луғатайн” илмий-танқидий матн. —ЎзР. ФА “Фан” нашриёти давлат корхонаси, 2021. —Б.10

[4] Турсунов Ю. “Муҳокамату-л-луғатайн” илмий-танқидий матн. —ЎзР. ФА “Фан” нашриёти давлат корхонаси, 2021. —Б.12

yuritar ekan, uning “o’zi o’rgangan kulliyotlarning bir muncha to’liqrog’i” ekanini ta’kidlaydi[5]. Yusuf Tursunov asar matnini To’pqopi va Parij nusxalariga qiyosan o’rganganini va Fotih nusxasining anchayin matniy mukammallikka ega ekani, muhim ijobiy xususiyatlari mavjudligini e’tirof etib ketganlar. Olim ushbu ilmiy-tanqidiy matn tarkibida “Muhokamat ul-lug’ataynning ilmiy-tanqidiy teksti asosidagi matnini beradi, bunga mos ravishda “Muhokamat ul-lug’atayn”ning hozirgi o’zbek tilidagi izohli bayoni keltirilgan. Izohli bayonda terminlar alohida qora rang bilan ajratib ko’rsatilgan, ularning ma’nolari tushunarli qilib yoritilgan.

Asarning yana bir ahamiyatli jihati “Muhokamat ul-lug’atayn” asarining Fotih qo’lyozma nusxasi faksimilyesi kiritilganidir. Faksimilyedan oldin Yusuf Tursunov o’zlari tomonidan yozilgan ilmiy-tanqidiy matn keladi, bunda har bir qo’lyozmadagi farqli jihatlar, tafovutlar, tushib qolgan so’zlar shartli belgilar orqali ko’rsatilgan.

“Muhokamat ul-lug’atayn”da keltirilgan yuzta fe’lning jadvali P. Shamsiyev, S. Ibrohimov Navoiy asarlari lug‘ati, Alisher Navoiy asarlarining 4 tomlik lug’ati, Fitratning “O‘zbek adabiyoti namunalari” asari, Sema O‘zunderning “Iki dilin muhokamasi” ilmiy risolasi va boshqa asarlar orqali fe’llarning ma’nolariga ko’ra tuzib chiqilgan. Ba’zi kitoblarda ba’zi fe’llar berilmagan, ya’ni tushib qolgan.

Endi Qosimjon Sodiqov qalamlariga mansub “Muhokamat ul-lug’atayn”ni o’qib-o’rganish kitobi haqidagi o’ziga xos xususiyatlar haqida to’xtalib o’tsak. Muallif asarda “Muhokamat ul-lug’atayn”ning To’pqopi nusxasi hamda Parij nusxalarining faksimilyalari kiritilgan. Ta’kidlab o’tish joizki, Fotih nusxasi faksimilyasining xati To’pqopi va Parij nusxalaridan o’qilishi osonroq va yozuv jihatidan tushunarliroq qilib ko’chirilgan. Yana bir ahamiyatli jihat shundaki, asarda “Muhokamat ul-lug’atayn”ning transkripsiya matni berilgan va asarni transkripsiyaga o’girish yo’llari tushuntirib berilgan, bunda yozma yodgorliklarni nashrga tayyorlash, ularning ilmiy-tandiqiy yoki yig’ma matnlarini tuzish bo’yicha ko’rsatmalar yozib o’tilgan. Qosimjon Sodiqov turkiy tilning so’z boyligi haqidagi fikr va mulohazalaridan so’ng tildagi morfologik o’zgachaliklar to’g’risida ham ma’lumotlar beradi. Bunda olim so’z yasovchi qo’shimchalar va so’zlarning ma’nosiga ta’sir qiluvchi qo’shimchalar, ularning vazifalari haqida yozadi, misollar keltiradi. “Muhokamat ul-lug’atayn” qo’lyozmalarining o’zaro chog’ishtirmasi misolida Parij va Fotih nusxalaridagi ba’zi jumlalarning farqli jihatlarini jadval ko’rinishida berib ketganlar.

Qosimjon Sodiqov yaratgan asar o’z nomi bilan ilmiy-transkripsion matn bo’lganligi sabab transkripsiya yoki transliteratsiya mumtoz asarlarni nashrga tayyorlashda muhim ekanligi ta’kidlangan. Ushbu kitobda matnni o’qish va transkripsiyaga o’girish yo’llari muhim tamoyil bo’lib xizmat qiladi. Transkripsiya tovushning yozuvda aks ettirilishi, klassik asarning tovush xususiyatlarini , to’liq o’qilishini matnda aks ettirgan holda hozirgi yozuvga o’girish, transliteratsiya esa qo’lyozma matnidagi harflar sonini saqlagan holda uni hozirgi yozuvga o’girishdir[6].

“Muhokamat ul-lug’atayn”ni transkripsiyaga o’girishda quyidagi harflardan foydalanildi. Unlilar uchun:

a -tilning tagidan chiqadigan(orqa qator), “yo’g’on”, keng, lablanmagan unli;
ä- tilning uchidan chiqadigan(old qator), “ingichka”,keng, lablanmagan unli;
ā- arabcha va forscha o’zlashmalardagi “alif” bilan beriluvchi “cho’ziq” a;
e- old qator, “ingichka”, “yopiq”, lablanmagan unli;
ï- orqa qator, “yo’g’on”, tor, lablanmagan unli;
i-old qator , “ingichka”, tor, lablanmagan unli;
o- orqa qator, “yo’g’on”, keng, lablangan unli;
ö- old qator ,“ingichka”, keng, lablangan unli;
u- orqa qator, “yo’g’on”, tor, lablangan unli;

[5] Sulaymonov H. “Alisher Navoiy kulliyoti qo’lyozmalari tadqiqotidan”. “Adabiy meros” 1973, 3-son, 86-87 b.
[6]Алишер Навои “Муҳокамату-л-луғатайн”: Қ.Содиқов таҳлили, табдили ва талқини остида. —Тошкент: Akademnashr, 2017. Б.25

ü- old qator, “ingichka”, tor, lablangan unli.

Undoshlar uchun esa turkshunoslikda qabul qilingan b, p, d, t, q, k, ğ, g, x, z, s, č, š, y, l, m, n, ŋ, r harflaridan foydalanganlar. Shuningdek, [v] fonemasining ikki xil variant transkripsiyada alohida harflarda berilgan: turkiy so’zlardagi variant uchun w; arab va eroniy tillardan o’zlashgan so’zlarda qo’llaniladigan variant uchun esa v harfi olingan[7].

Arab alifbosi asosida turkiy imloda arab va fors tillaridan o’zlashgan so’zlarga nisbatan yozuv prinsipi amal qilgan. Bunday so’zlar arabcha matnlarda qanday yozilsa, turkiy matnlarda ham xuddi shu tarzda yozilavergan. Lekin faqat arab tiligagina xos bo’lgan tovushlar turkiy tovushlar singari talaffuz etilgan. Masalan: o’zlashgan so’zlarda mavjud ha: (ح), ha (ه) turkiy tilda h; sa (ث) turkiyda s; da:t (ض), za: (ظ) turkiyda z sifatida aytilib kelgan. Olim arabchadan o’zlashgan so’zlarni ham matnga tayangan holda transkripsiyada berganlar, arab tili uchungina xos bo’lgan harflarni alohida belgilar orqali berganlar. Ular quyidagicha: b, p, d, t, q, k, ğ, g, x, z, s, č, š, y, l, m, n, ŋ, r harflaridan iborat. Shuningdek, [v] fonemasining ikki xil variant alohida harflar tarzida berilgan: turkiy so’zlardagi variant sifatida w; arab va eroniy tillardan olingan so’zlarda qo’llaniladigan variant qilib v harfini tanlaganlar. Bu o’quvchiga va transkripsion matnlar bilan ishlashni boshlagan o’rganuvchilarga kengroq imkoniyat beradi, tillar doirasini yaxshiroq anglashimiz uchun katta xizmat qiladi.

Muallif “Muhokamat ul-lug’atayn”ning hozirgi o’zbek tiliga soddalashtirilgan o’girmasida arabcha jumlalar arab tilida berilgan, fe’llar transkripsiyada yozilgan, shuningdek baytlar ham. Asarda “Muhokamat ul-lug’atayn”ni nozik ma’nolari bilan ajratib turuvchi yuzta fe’l va ularning ma’nolari yoritilgan, Yusuf Tursunov ilmiy-tanqidiy matnida ham yuzta fe’lga alohida to’xtalgan. Tanqidiy matn so‘ngida fe’lning turli lug ‘atlar va ilmiy manbalarda berilgan ma’nolarga ko’ra qiyosiy jadavli keltirilgan, bunda olimlarning turlicha qarashlari va farqlar yoritilgan.

Xulosa.

“Muhokamat ul-lug’atayn”ning ilmiy matnlari turk tilining barcha o’ziga xosliklari haqida batafsilroq ma’lumot olishimizga yordam beradi. Jumladan, fonetikada turkiy tilning boshqa tillarda, xususan, forschada uchramaydigan o’ziga yarasha tovushlari, uslubiy xoslangan fe’llar ma’nolari, ularning mazmunga ta’siri, sinonimlarning poetikadagi o’rni, stilistik xususiyatlari, so’zlarning ko’pma’noliligi, shuningdek, turkiy atamalar tizimining o’ta boyligi singari muhim jihatlarga e’tibor qaratiladi. Ushbu asardan ko’zlangan asosiy maqsad turkiy tilning badiiy imkoniyatlarini nihoyatda keng ekanligini ko’rsatib berishdan iborat va asarning ilmiy nashrlari oson tilda va izohlar bilan “Muhokamat ul-lug’atayn”ni anglashimiz uchun asos bo’lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Турсунов Ю. “Муҳокамату-л-луғатайн” илмий-танқидий матн. —ЎзР. ФА “Фан” нашриёти давлат корхонаси, 2021. 12- б
2. Sulaymonov H. “Alisher Navoiy kulliyoti qo’lyozmalari tadqiqotidan”. “Adabiy meros” 1973, 3-son, 86-87 b.
3. Алишер Навои “Муҳокамату-л-луғатайн”: Қ.Содиқов таҳлили, табдили ва талқини остида. —Тошкент: Akademnashr, 2017. 25- б

[7] Алишер Навои “Муҳокамату-л-луғатайн”: Қ.Содиқов таҳлили, табдили ва талқини остида. —Тошкент: Akademnashr, 2017. Б.25